



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



TURK VA O'ZBEK TILLARIDA ZOOMORF VA FITOMORFLAR VOSITASIDA INSON OBRAZINI IFODALASH

Zebo Salimova

O'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Til, inson qiyofasi, xarakter, zoonim, zoofrazeologizm, obraz, portret, ijobiy, salbiy, tashqi ko'rinish, o'xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, ma'no ko'chishi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola turk tilida inson obrazini ifodalashda zoonim va zookomponentli iboralardan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi. Fitonimik va zoonimik lug'at orqali shaxsni obrazli nominatsiya qilish muammosi tilshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning lingvistik qiymatining sababi insonni o'rab turgan tirik tabiat sharoitida o'zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Ushbu jarayon zoosfera va fitosferani antroposentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda ta'minlanib, keng va chuqur tarqalmoqda. Bir tomondan, u so'z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Bu darajalarning eng qudratlisi - matn darajasi ham chetda qolmaydi.

Turk tilida qo'llaniladigan zoofrazeologik birliklar ma'no jihatdan tahlil qilinadi. Zoonim orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko'rib chiqiladi. Turk tilida inson qiyofasini aks ettirish, ulaming xarakterlarini ochib berishda tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi.

REPRESENTATION OF HUMAN IMAGE THROUGH ZOOMORPHES AND PHYTOMORPHES IN TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

Zebo Salimova

Teacher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Language,

Abstract: This scientific article is dedicated to the use of

human image, character, euphemism, zoonym, image, portrait, positive, negative, appearance, analogy, image, alternative, equivalent, transfer of meaning.

zoomorphic terms and expressions with zoo-components to depict human characteristics in the Turkish language. The issue of figurative nomination of individuals through phytotoponymic and zoomonymic lexicon remains significant in linguistics. Its linguistic value lies in the continuous process of human self-awareness within their surrounding living nature. This process is constantly enriched with new forms of anthropocentric interpretation of the biosphere and geosphere, expanding in breadth and depth. On one hand, it encompasses new layers of vocabulary, and on the other hand, it penetrates various levels of language, with the textual level being the most powerful.

Zoophraseological units used in the Turkish language are analyzed in terms of their meanings. The zoomonym explores the breadth of linguistic possibilities in expressing the human image. Attention is paid to the lexicon of the Turkish language in reflecting the image of individuals and revealing their characters.

ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА С ПОМОЩЬЮ ЗООМОРФОВ И ФИТОМОРФОВ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Зебо Салимова

Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Язык, образ человека, характер, эвфемизм, зооним, образ, портрет, положительный, отрицательный, внешность, аналогия, альтернатива, эквивалент, передача значения.

Аннотация: Данная научная статья посвящена использованию зоонимов и выражений с зоокомпонентами для описания человеческих характеристик в турецком языке. Проблема использования образных выражений для описания людей с помощью растительных и животных терминов остается важной в лингвистике. Ее лингвистическая ценность заключается в постоянном процессе самопонимания человека в окружающей его живой природе. Этот процесс постоянно обогащается новыми формами антропоцентрической интерпретации биосферы и геосферы, расширяясь в глубину и ширину. С одной стороны, он охватывает новые слои лексики, а с другой стороны, проникает на разные уровни языка, причем самым значимым из них является текстовый уровень.

Зоофразаологические единицы, используемые в турецком языке, анализируются с точки зрения их значений. Зооним исследует разнообразие языковых возможностей в описании человеческого образа. В турецком языке особое внимание уделяется лексике, отражающей образ людей и раскрывающей их характеры.

KIRISH

Til inson va borliq o'rtasidagi ko'prik, olamni idrok etishidagi eng muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.¹ Har bir shaxsning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularining yuzaga keltirishida til o'zgacha ahamiyatga ega. Har qanday xalq o'zining olam manzarasiga ega bo'ladi. Til egasi esa bo'lgan lisoniy shaxs esa ayni shu manzaraga mos ravishda ifodalarni tuzadi va tinglovchiga yetkazadi. Bu jarayonda tilda o'z aksini topgan insonda olamni o'ziga xos idrok qilish tarzi namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarning shakllanishi va mavjud bo'lishidagi eng muhim omil sanaladi. Insonning o'zligini anglashi, unda milliy g'urur, iftixor kabi oliy tuyg'ularning qaror topishida tilning o'rni nihoyatda beqiyos. Zero, tilshunoslik sohasi mutaxassislarini tayyorlashda sohaga oid turk va o'zbek tillarida sifat leksemalarning qiyosiy-chog'ishtirma tizimini ilmiy asosda chuqur tadqiq qilingani, o'zbek va xorijiy tillarda umumiy, xususiy jihatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'lami hamda samaradorlik ko'rsatkichini yanada oshishiga imkoniyatlar yaratadi.

Tilshunoslikda oraliq sohalarning paydo bo'lishi tabiiy ravishda gibridlashgan terminlarni yuzaga keltirdi. Shunday terminlardan biri sifatida zoomorf terminini ko'rsatish mumkin. Zoomorf atamasi tuzilishiga ko'ra ikki qismlig bo'lib, "hayvonga oid" ma'noli zoo termin elementi va "shakl" ma'nosidagi morf so'zining birikuvidan hosil bo'lgan. Zoomorf termini dastlab lingvistikada qo'llanmagan, lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanishi bilan bu atama tilshunoslikda ham faollashdi. Bugungi kunda mazkur atamasi ostida tilshunoslikda "hayvonot dunyosiga oid til birligi" ma'nosida qo'llanadi.²

Fitomorf termini hozirgi zamon tilshunosligidagi lingvomadaniy aspektidagi ishlarda tez-tez qo'llanayotgan terminlardan biridir. Mazkur atama tarkibidagi "fit(o)-..., fit- termin elementi asli yunoncha "phyton" – o'simlik degan ma'noni anglatadi, o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlari bo'lib, shu so'zlarning o'simliklarga va o'simliklar haqidagi fanga – botanikaga aloqadorligini bildiradi".³ Morf so'zi esa "shakl" ma'nosini anglatadi. Fitomorfizm esa "o'simlikka oid tushunchani bildiradigan lisoniy birlik"larni umumlashtirib ataydi.⁴ Fitomorf esa shu ma'nodagi bitta birlikni xususiylashgan semada ifodalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, insonlarning o'xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o'sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalar avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinotni bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularni sirli va ilohiy kuch sifatida baholashi, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari natijasida vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e'tiqodga bog'liq holda hayvonot, nabotot va koinotdagi mavjud narsalar jonzotlarga totemistik munosabatlar natijasida sher, arslon, yo'lbars, qoplon, burgut, lochin, qirg'iylarni - mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg'a, quzg'unlarni-qonxo'r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullarni - go'zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g'uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarni go'zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovol

¹ Сепир Э. Язык. Введениу в изучение речи.-М.:ЛЕМАНД,2016. –С.5

² Шарова А.А. Зооморфизмы как средство репрезентации гендерных концептов в английской лингвокультуре // Ярославский педагогический вестник, 2010. №3. – С.144-148.

³ Мадвалиев А., Махаммов Н., Мирахмедова З., Саиднўмонов А. Халқаро термин элементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020. – Б.245.

⁴ Сутормина О.А. Фитоморфизмы в лексике фраземике донских казачьих говоров // Вестник ТГУ, 2012. Вып.12 (116). – С.311-313.

kabilarni xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilgan va bu holat og'zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat o'zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog'lashi, ya'ni, qiyoslashi, o'xshatishi, sifatlashi kabilarni bog'liq, ular tilimizdagi ko'plab badiiy ifoda vositalarining vujudga kelishiga asos bo'lgan.

Olam lisoniy manzarasini tashkil etuvchi metaforalar hayvonot va nabotot dunyosi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi va bunda hayvonlar, hasharotlar, qushlar va o'simliklar nomi aks etadi. Ularning turli xususiyatlari va insonga xos belgilari, harakatlari o'rtasida o'xshashlik kuzatiladi. O'xshatishlarda insonning deyarli barcha xususiyatlarini aks ettirish mumkin bo'ladi. Xususan, arslondek yigit, ayiqday kuchli, tulkidek ayyor, ilondek avramoq, o'rgimchakdek to'riga ilintirmoq, eshakdek ishlamoq, chumoliday mehnatkash, itday ishlamoq, burgutdek kuchli, quyondek epchil, chinordek yigit, gulday nozik singari metaforalar o'zbek lisoniy manzarasida mavjud. Bundan tashqari, insonning g'ayriodatiy harakatlarini ifodalashda echki, maymun kabilardan etalon sifatida foydalaniladi.

Turk va o'zbek tillarida inson tashqi qiyofasini ifodalashda uy hayvonlari bilan bog'liq qator zoonimlar qo'llanilishini ko'rish mumkin. Xususan, kuchli, navqiron, yelkador erkaklar uchun "tay gibi (toydek)" birikmasi qo'llansa, durkun ayollarni ta'riflashda esa "at gibi" (otdek) birligidan foydalaniladi.

Shu o'rinda har ikki tildagi "eshak" zoonimi bilan bog'liq birliklarga e'tibor qaratsak. "Eshak gibi" ifodasi turk tilida "aqlsiz", "qo'pol", "o'ylamay ish qiladigan" kabi ma'nolarda keladi. Tuyg'usiz, hissiz odamga nisbatan esa "eshak derisi gibi" birikmasi qo'llanadi. Bundan tashqari, insonlarni tashqi ko'rinishiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Xususan, chiroyli, katta-katta ko'zlarga nisbatan "eshak gozlu" ifodasi ham ishlatiladi. O'zbek tilida buning o'rniga "jayron ko'z", "ohu ko'z" birligi ishlatiladi.

Qaysar odamning ta'rifini berishda har ikkala tilda ham biroz o'xshashlik mavjud. O'zbek tilida "qaysar eshshak" iborasi qo'llansa, turk tilida undan ham qaysarroq bo'lgan xachir hayvoniga o'xshatiladi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qoraxoniylar saltanati davrida eshak bilan ot o'rtasidagi hayvon qatir deb yuritilgan: Qazida qalin yund aqurda qatir — dashtda ko'plab otlar og'ilxonada esa xachir. XIV asr arab tilida bitilgan filologik risolalarda o'zining asl ma'nosini davom ettirgan.⁵

Qaysar odam turk tilida ham "Katir gibi" birikmasi yordamida ifodalanadi. Turk xalqida qaysar ma'nolarida "inatçı keçi", "eshak gibi" o'xshatmalari ham qo'llanadi. "Eshak kafali" birikmasi esa "anqov", "hech nimani tushunmaydigan" kabi ma'nolarda keladi. Ayni shunga o'xshash "eshak miya" birligi o'zbek tilida ham mavjud. Shuningdek, tilimizda "o'z bilganidan umuman qolmaydigan, birovni fikri bilan hisoblashmaydigan kishi"ga nisbatan "eshak ekansan" tarzidagi haqorat birligi ham ishlatiladi.

O'zbek va turk tillarida it zoonimi bilan birga kuchuk, ko'ppak (köpek) singari zoonim birga ham qo'llanadi. Ushbu zoonimlar ifodalaydigan sifatlardan biri "sodiq" tushunchasi bilan bog'liq. Odatda, har ikki tilda uzoq yillar bir odam qo'lida ishlagan va sadoqat ko'rsatgan kishilarga "itdek va fodor" birligi ishlatiladi. Hattoki, o'zbek lisoniy manzarasida maqol shaklida aks etgan: "It vafo - xotin jafu".

⁵Abdushukurov B. XI – XIV asr turkiy yozma manbalarda qo'llanilgan zoonimlar// Oltin bitiglar- Golden scripts, 2019.

It zoonimi “qadr-qimmatini yo‘q, tarbiyasiz odam” ma‘nosida ham turk lingvomadaniyatida mavjud. “Yüzünü köpek yalamış”, “köpek gibi” kabi birliklar orqali “surbet”, “yuzsiz”, “orsiz” kishilar obrazi gavalantiriladi. Shu bilan birga, it zoonimi juda ham sodiq, bog‘lanib qolgan insonga nisbatan ham, yoki “jon-jahdi bilan yalinmoq”, “itdek yalinmoq” ma‘nolarini berish uchun ishlatiladi: “Hatani anlayıp, bir gün köpek gibi yalvaracaksın.” “İnkâr ediyorsun, ama köpek gibi sevdiğin her halinden belli”. Mazkur jumlada köpek gibi birikmasi turk xalqi mentalitetiga chuqur singiganini ko‘rish mumkin.

Turk va o‘zbek tillaridagi inson xarakteri va tashqi ko‘rinishini gavalantirishga xizmat qiluvchi faol zoonimlardan biri “bo‘ri”, “bo‘ridek”, “kurt gibi”, “kurt” birligidir. Ushbu zoonim turkiy xalqlar dunyoqarashida alohida ahamiyatga ega. Qadimdan ota-bobolarimiz bo‘riga boshqacha munosabatda bo‘lishgan. Bo‘ri turkiy xalqlar tasavvurida totem darajasiga ko‘tarilgan hayvon hisoblanadi. Shuning uchun u bilan bog‘liq tushunchalarning aksari ijobiy ma‘noda ifodalanadi. Ayniqsa, bu holatni turk tilida yaqqol ko‘rish mumkin. U turkchada ijobiy ma‘nodagi stereotip sifatida “o‘z ishining ustasi”, “kirishuvchan” kishilarga nisbatan “kurt gibi” birikmasi qo‘llaniladi. Bundan tashqari “ish ko‘zini biladigan, uddaburon” shaxslarga yoki “mehribon va ishonchli do‘st” ma‘nosida ham “kurt gibi” tarzida qo‘llaniladi.

Har ikki tilda inson tashqi ko‘rinishidagi “novchalik” bilan bog‘liq sifatni anglatishda “jirafa” zoonimlaridan foydalaniladi. “Bir mahal mundoq qarasam, bo‘ynim uch qarichcha cho‘zilib ketibdi, boshimni ko‘targan edim – Afrika o‘rmonlarida yashaydigan jirafaning xuddi o‘zginasi bo‘lib qolibman”.⁶

Salbiy stereotiplarni ifodalash uchun manda gibi (to‘nkaday, ishyoqmas), tilki gibi (ayyor, laganbardor) kabi zoonimli birikuvdan foydalaniladi.

Ayyor, laganbardor kishilarga nisbatan har ikkala tilda “tulki”, “tilki gibi” tarzida beriladi. Tabiatan *tulki* ayyor hayvon, u o‘z o‘ljasiga erishish uchun har qanday ayyorlikni qiladi. O‘zbek tilida esa inson xarakterining *ayyorlik* jihati “*ilonni yog‘ini yalagan*” frazeologik birligi orqali ham ifodalanadi.

Ayyor, yolg‘onchi, yomon xulqli kishilar yoki sotqin kishilarni “çakal”, ya‘ni shoqol, chiyabo‘riga qiyos qilinadi. Turk tilida sotqin va yoqimsiz kishilarga “yılan gibi” metaforasini qo‘llash ham uchraydi. Gözlerinde ancak annemin bildiği bir yılan ışıltısıyla gülüyor.⁷ (Ko‘zlarida faqat onam bilgandek ilon makri bilan kuladi).

Har ikki til egalari tafakkurida “sher”, “arslon” zoonimlari “qo‘rqmas, jasur” ma‘nosini anglatadi. Ayniqsa, turklarda o‘g‘il bolani erkalashda “aslan og‘lum” birikmasi juda ko‘p qo‘llaniladi. O‘zbeklarda ham o‘g‘il farzand tug‘ilganda “sherdek baquvvat bola bo‘lsin” singari niyat aytiladi. Bundan tashqari turk va o‘zbek tillaridagi aslan gibi / arslondek o‘xshatishi kuchli, mard, azamat kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq turk tilida “aslan gibi” birligining o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, “sog‘lom” ma‘nosi ham mavjud. Quyidagi parchada aynan shu ma‘noda voqealangan: Ben, gözlerimde bir türlü durmayan yaşlar, tikanan kuşavruvarı gibi açık ağzımda boğuk hıçkırıklarla titrerken ihtiyar arkadaşım, pencereye döndü, karanlıkta ta uzaklara yumruğunu saklayarak: - Allah belanı versin, aslan gibi çocuğu berbat ettin, - dedi.

O‘zbek tilida aqrab deb ham yuritiladigan chayon turk tilida akrep deyiladi va “chayon” ma‘nosini beradi, lekin insonlarga nisbatan “çıyan gibi” ifodasi ishlatiladi va “tili zahar”, xoin, sotqin kishiga nisbatan qo‘llaniladi.

⁶To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. –T., 2001.–B.66

⁷Ortaç Y.Z. Türkçe sözlük. Ankara, 1999.

Insonning xarakteri, xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarda turk va o'zbek tillarida so'zlashuvchi til egalarining etalon sifatida itday sadoqatli (kōpek gibi sadık), molday befahm (mal gibi), musichaday beozor (kuş gibi), eshakday qaysar (eşek gibi), itday ishlar (kōpek gibi ısırmak), echkiday sakramoq (keçi gibi zıplamak), toshbaqaday sudralmoq (kaplumbağa gibi sürüklenmek), ilonday avramoq (yılan gibi mahfetmek), bulbulday sayramoq (bülbül gibi ötmek) singari turli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalanganligi ma'lum bo'ldi.

Nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlar muhim rol o'ynaydi. Zero, inson hayoti flora bilan uzviy bog'liqdir. Tilshunos olimlarning o'simlik dunyosiga alohida e'tibor qaratishining birinchi sababi shu bo'lsa, boshqa sababi o'simliklar bilan bog'liq til birliklari xalqning lisoniy manzarasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Fitonimlar xalq tafakkurida mifologik, diniy va adabiy an'analar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Fitomorfizmlar fikrlashning dastlabki shakli bilan ham aloqador bo'lib, fikrlashning bu shaklidan kelib chiqqan tushunchalar tilga ham ko'chgan. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she'riy, ilmiy) ko'rib chiqish davom etmoqda.

Turk lingvomadaniyatida armut//nok (murut) so'zi inson tabiatini aks ettirishda eng keng qo'llanadi. Xususan, "armut gibi" o'xshatishli birikmasi yordamida "gap tushunmaydigan, anqov kishi"ga nisbatan ishlatiladi. *Armut gibi ne demek? Çok anlayışsız, bön*⁸. Armut mevasi yordamida ko'pincha salbiy xarakterli kishilar obrazi yaratiladi. Dangasa, biror ish qilmasdan foyda kutadigan, rizqni osmondan tushadi deb o'tiradigan odamlarga nisbatan turk olam lisoniy manzarasida "armut piş, ağzıma düş" iborasi ham ishlatiladi. Bu o'zbek lingvomadaniyatidagi "olma pish og'zimga tush" iborasining aynan o'zidir. Bu esa turklar tafakkurida armut//nok (murut) bilan bir xil ma'no kasb etuvchi hech bir mehnat sarflamasdan bir nima kutadigan odamlarga nisbatan ishlatiluvchi tekinxo'r obrazini ifodalashini ta'kidlash joizdir.

O'zbek va turk tillarida meva nomlarining o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Bunday o'xshatish etalonlariga "gilos", "olma", "yong'oq" kabi meva nomlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Turk tilida "ayva göbekli" metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva- bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo'llanadi. O'zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, "qorni qopday" yoki "tarvuz yutib olganday" o'xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o'rin tutadi. Zaytun qora bo'lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo'lgani uchun "zeytin gibi" o'xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta'riflashda ishlatiladi.

Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fıstık yong'og'i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkalab chaqirishda "fıstığım" shaklida qo'llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida "çekirdekten yetişme" iborasi ham keng tarqalgan bo'lib, tug'ma iste'dodli insonga ko'ra nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo'lib, turk xalqi yashash tarzining ajralmas qismidir.

Umuman olganda, meva nomlari orqali shaxsning u yoki bu xususiyatini tasvirlash, yaratish til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko'rsatib beradi, ta'sirchanlikni oshiradi hamda tinglovchida shaxs haqida aniq taassurot qoldiradi va idrok qilinishini osonlashtiradi.

⁸<https://www.nedimedemek.com/armut-gibi-ne-demek>

Menekşe turk tilida binafsha gulini anglatib “Menekşe gibi”-çok güzel, juda chiroyli ma’nosida keladi. Turk tafakkurida “menekşe gibi” birligi mavjud bo’lib, juda chiroyli ma’nosida keladi: “menekşe gibi çok güzel” tarzida faol qo’llanadi.

Turk tilida vaqtinchalik kayf-safoga mukkasidan ketgan, o’tkinchi go’zallik shaydolariga nisbatan “bahar çiçeği gibi geçici güzellik” birligi ham qo’llanadi. O’zbek tilida barvaqt turmushga chiqishga harakat qilgan qiz bodom guliga qiyos qilinadi, chunki bodom kunlar salgina isib quyosh ko’rinishi bilan gullaydi, hatto bir yilda uch martagacha gullaydigan bodom navlari bor. Shunga ko’ra yengiltabiat qizlar, bodom fitonimiga qiyoslanadi. Turk tilida “tez qo’ldan ketguvchi narsalarga mast bo’lgan kishi” “bahar çiçeği” birligi bilan ifodalanadi.

Ikki til lisoniy manzarasida ham “yuziga dog’ tushib ketish kasalligiga” nisbatan xalq tilida çiçek bozuğu//chechak chiqibdi birligi qo’llanadi.

Bundan tashqari turk tilida biror bir daraxt guli vositasida ham inson tashqi qiyofasini ifodalash mumkin. Masalan, “juda chiroyli inson”larni ta’riflash uchun esa “nar çiçeği” birikmasi qo’llanadi.

Har ikki til olam lisoniy manzarasida “rayhon” fitonimi yordamida “xushbo’yli, yoqimli so’zli kishilar” ta’rif etiladi. Turkchada reyhan kokulu (rayhon hidli) birligi odatda xushbo’y odamlarga nisbatan qo’llanadi.

O’zbek va turk tillarining fitonomik manbalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida o’simliklar dunyosi bilan bog’liq birliklarni inson obrazini gavdalandirishda umumiy va o’ziga xos xususiyatlar mavjudligi ko’rindi. Har ikki til tafakkurida inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda asosan meva va mevali daraxtlarga tayanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa ko’proq daraxtning kesilgan tanasi, o’tin yoki to’nka bilan bog’liq birliklar qo’llanishi ma’lum bo’ldi.

Turk va o’zbek olam lisoniy manzaralarida gul, o’t-o’lan, sabzavot, poliz mahsulotlari nomlari inson tasvirini aks ettirishda eng faol birliklar sifatida keng qo’llanadi. Kishining ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko’proq gullar bilan bog’liq fitonimlardan foydalanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa asosan, o’t-o’lan va poliz ekinlari nomi bilan bog’liq fitonimlar ishlatiladi.

Buyuk olim, nemis tilshunosi Yakob Grimm “Xalq haqidagi saqlanib qoladigan eng jonli guvoh–bu uning suyagi, foydalangan ish qurollari yoki qabri emas, balki uning tilidir” degan o’rinli mulohazani aytgan.⁹ Shu jihatdan qaralsa, inson tilidan uning tarixi, madaniyati, barcha qadriyatlarini topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ismoilov F. Zookomponentli frazeologik birliklarning etnomadaniy xususiyatlari // O’zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. №7. – Toshkent: 2013.
2. Шабанов J., Хамидов X. Uy hayvonlari nomiga asoslangan maqol va iboralarning tarjimada berilishi // Tarjima masalalari. № 2. – Toshkent: ToM DIII, 2014.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2001.
4. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lug’aviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yo’ldosh o’g’li varinti asosida): Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T., 2008. – 26 b.
5. Zohidov T.Z. Zoologiya entsiklopediyasi. Qushlar. – Toshkent, 1957.

⁹Гримм. Я. История немецкого языка. – Журнал А. А. Хованского «Филологические записки» 1864.

6. Ibrat. «Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodining ma'naviy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati» ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 84 b.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.com>
2. <http://tdk.gov.tr>
3. <http://kitob.uz>
4. <http://www.biblus.ru>